



QARLUQ XALQLARINING TARIXIY ETNOGENEZI

Yoqubov Sodiqjon Latif o'g'li

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

[mirzosodiqjon.@gmail.com](mailto:mirzosodiqjon@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14968673>

Annotatsiya. Maqolada qarluq xalqlarining etnogenezi masalalari turli tarixiy manbalar, olimlarning tadqiqotlari asosida o'rganilgan. Qarluqlarning etnik tarkibi, ularning VII-XIII asrlarda Markaziy Osiyo hududidagi siyosiy va madaniy hayotda tutgan o'rni, qo'shni xalqlar bilan o'zaro lisoniy va madaniy aloqalari, hamda ularning ijtimoiy kelib chiqishi yoritiladi. Shuningdek, maqolada qarluqlarning etnogenezi Markaziy Osiyo tarixiy jarayonlarining muhim bir qismi ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Qarluqlar, etnogenez, Markaziy Osiyo, etnik tarix, qabila, urug', Turkiylar manbalar, arxeologiya, madaniyat.

Аннотация. В статье исследуются вопросы этногенеза карлукских народов на основе различных исторических источников, исследований ученых. Освещается этнический состав карлуков, их роль в политической и культурной жизни Среднеазиатского региона в VII-XIII веках, языковые и культурные связи с соседними народами, а также их социальное происхождение. В статье также обосновывается, что этногенез карлуков является важной частью центральноазиатских исторических процессов.

Ключевые слова: карлуки, этногенез, Средняя Азия, этническая история, племя, клан, тюрки источники, археология, культура.

Annotation. The article explores the issues of ethnogenesis of the qarluq Peoples based on the research of various historical sources, scientists. The ethnic composition of the qarluqs, their role in political and cultural life in the territory of Central Asia in the 7th-13th centuries, their linguistic and cultural relations with neighboring peoples, as well as their social background are highlighted. The article also substantiates the fact that the ethnogenesis of the qarluqs is an important part of the historical processes of Central Asia.

Keywords: Qarluqs, ethnogenesis, Central Asia, ethnic history, tribe, seed, Turkic sources, archaeology, culture.

KIRISH VA DOLZARBLIK

Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy o'tmishini o'rganish mintaqa xalqlarining etnik va madaniy rivojlanish qonuniyatlarini anglash, ularning o'ziga xosligini aniqlash, shuningdek, mintaqada barqarorlik va hamkorlikni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu ma'noda, qarluq xalqlarining tarixiy etnogenezini o'rganish Markaziy Osiyo tarixshunosligining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Qarluqlar Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan, o'z davlatchiligiga ega bo'lgan va mintaqa xalqlarining etnik va madaniy rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Shunday ekan, qarluqlarning kelib chiqishi, shakllanish jarayoni va tarixiy taqdirini o'rganish mintaqa tarixini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Ilmiy ahamiyati: Qarluqlar etnogenezi Markaziy Osiyo xalqlarining etnik tarixi, madaniy aloqalari va siyosiy jarayonlarini o'rganish uchun muhim manba



hisoblanadi. Qarluqlarning kelib chiqishi, shakllanishi va keyingi taqdiri haqidagi ma'lumotlar mintaqadagi etnik jarayonlarning umumiy manzarasini to'ldiradi va turli xalqlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aniqlashga yordam beradi.

Tarixiy-madaniy ahamiyati: Qarluqlar Markaziy Osiyo madaniyatiga sezilarli hissa qo'shgan. Ularning tili, urf-odatlar, an'analari va san'ati mintaqa xalqlarining madaniy merosining tarkibiy qismi hisoblanadi. Qarluqlar madaniyatini o'rganish mintaqaning madaniy xilma-xilligini saqlash va ommalashtirishga yordam beradi.

Siyosiy ahamiyati: Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va hamkorlikni ta'minlash mintaqa xalqlarining o'tmishini xolis va ilmiy asosda o'rganishni taqozo etadi. Qarluqlar tarixini o'rganish mintaqa xalqlari o'rtasidagi o'zaro hurmat va tushunishni mustahkamlashga yordam beradi.

Manbashunoslik ahamiyati: Qarluqlar tarixi bo'yicha ma'lumotlar arab, fors, turkiy va xitoy manbalarida saqlanib qolgan. Ushbu manbalarni o'rganish va tahlil qilish Markaziy Osiyo tarixshunosligining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Yangi manbalarni aniqlash va mavjud manbalarni qayta o'rganish qarluqlar tarixiga oid yangi ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Tarixiy-qiyosiy metod: Turli tarixiy manbalarni (yozma manbalar, arxeologik materiallar, etnografik ma'lumotlar, lingvistik ma'lumotlar) qiyoslash va tahlil qilish orqali qarluqlarning kelib chiqishi, shakllanish jarayoni, etnik tarkibi va madaniy xususiyatlari aniqlanadi.

Manbashunoslik metodi: Qarluqlar tarixiga oid yozma manbalarni (arab, fors, turkiy, xitoy manbalari) tanqidiy o'rganish, ularning ishonchliligi va to'liqligini baholash, yangi ma'lumotlarni aniqlash.

Etnografik metod: Qarluqlar bilan bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lgan zamonaviy xalqlar (o'zbeklar, uyg'urlar, qozoqlar va boshqalar) ning urf-odatlar, an'analari, tili va madaniyatini o'rganish orqali qarluqlarning qadimgi madaniy merosini rekonstruksiya qilish.

Lingvistik metod: Qarluq tilining (yoki uning izlarining) turkiy tillar oilasidagi o'rni, qo'shni tillar bilan aloqalari, qarluq tilining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.

Sistemali tahlil metodi: Olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish, umumlashtirish va o'zaro bog'liqlikda o'rganish orqali qarluqlar tarixining yaxlit manzarasini yaratish.

Jahon tadqiqotchilari: Reshetov, Polivanov, Yudaxin, Borovkov va boshqa olimlar qarluqlar tarixiga, til xususiyatlariga oid oid muhim tadqiqotlar olib borishgan. Ularning ishlarida qarluqlarning qo'shni xalqlar bilan munosabatlari, etnogenezi, lahjasi kabi masalalar yoritilgan.

O'zbekiston tadqiqotchilari: K. Shoniyozov, Sh. Shoabdurahmonov,



X.Donyorov olimlarning ishlarida qarluqlarning tili, madaniyati, etnogenezi, davlatchiligi va etnik tarkibi masalalari o'rganilgan.

O'rganilmagan jihatlar: Shunga qaramay, qarluqlar etnogenezining ayrim jihatlari hanuzgacha bahsli bo'lib qolmoqda. Xususan, qarluqlarning ilk etnik tarkibi, ularning turkiy tillar oilasidagi o'rni, kabi masalalar chuqur tadqiqotni talab etadi.

TADQIQOT NATIJASI

Tarixiy manbalarida, shu jumladan, hozirgi olimlarimizning tadqiqotlarida qarluqlar qadimgi yirik turkiy qabilalardan biri sifatida qaraladi. Bu etnonim haqida o'tmish manbalaridan XI asrning olimi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asarida muhim ma'lumot mavjud. Jumladan, manbada qipchoq, qirg'iz, basmil, to'xsi, yag'mo, boshqird kabi 20 ta yirik "ona urug'lar" keyin sug'dak, arg'u, qanglilar qatorida qarluq nomini ham sanab o'tadi. Asarda qarluqlar turkiy qavmlar orasida ancha katta va qadimiy qabila-urug'lardan deb izohlanadi.

VI-VII asrlarda bular Oltoyning g'arbiy qismida, Chorish (Ob daryosi o'zanlaridan biri) daryosi havzasida, Irtish daryosining quyi oqimi bo'ylarida, Tarbag'atoyda hamda Jung'oriyagacha bo'lgan katta hududda yashaganlar. Qarluqlar, asosan, chorvachilik bilan shug'ullanib, bir yerdan ikkinchi yerga ko'chib, o'tovlarda yashaganlar. Qarluqlar hududi Sharqiy va G'arbiy Turk hoqonligi o'rtasida, strategik qulay yerda joylashgani uchun ular o'rtasida talash bo'lgan. Qarluqlar o'z mustaqilliklarini saqlab qolish uchun ular bilan betinim kurashlar olib borganlar. VII asr oxirlarida Sharqiy Turk xoqonligi qarluqlar hududining aksariyat qismini xoqonlikka qo'shib olgan. 742-yil qarluqlar, uyg'urlar va basmillardan iborat qabila ittifoqi isyon ko'tarib o'z mustaqilliklarini tiklaganlar. Bu voqealar jarayonida Qarluqlar eltibari (boshlig'i) o'zini 3 qabilaning yabg'usi (yetakchisi) deb e'lon qiladi. Xitoy qo'shini bilan arablar o'rtasidagi Talas jangida qarluqlar hal qiluvchi rol o'ynaganlar. Arab xalifaligi xitoyliklarning Markaziy Osiyoni bosib olishi mumkinligi, ammo davlatning ancha zayiflashganini e'tiborga olib ularga hujum qildi. Shu tariqa mashhur Talas jangi bo'lib o'tadi (751-yil, iyul)¹.

Musulmonlar va xitoylar o'rtasidagi bu urushgacha qarluqlar T'ang davlati tomonida bo'lgan. Ularning tobora oshkora bo'layotgan siyosati oldida so'nggi lahzada arablar bilan hamkorlik qilib, xitoyliklarning jabr ko'rishini ta'minladilar va ular og'ir mag'lubiyatga uchradi. Tarim havzasidan boshlab Markaziy Osiyoning g'arbda qarluqlarga, sharqda esa uyg'urlarga qarashli bo'lib, turklar hukmronligi ostida qolishini ta'minlagan bu urushda mag'lubiyatga uchragani uchun Xitoy qattiq

¹ Salman, Hüseyin. VII. ve X. Asırlar Arasında Önemli Türk Boylarından Karluklar ve Karluk Devleti, Türk Dünyası Araştırmaları, 15, Aralık, 1981, – s. 170-172.



ichki inqirozlarga guvoh bo'ldi va bu urushda mag'lub bo'ldi. Qarluqlar g'arb bilan uzoqroq ish tutib 757-766-yillarda turgashlar davlati hududini egallab olganlar. Chu daryosi bo'yidagi Suyob shahri qarluqlar davlati markazi bo'lib qolgan (766-940)². Qarluqlarga Jung'oriya Olatovidan to Sirdaryogacha bo'lgan hudud qaragan. Keyinchalik poytaxt Ili daryosi vodiysidagi Qo'yliq shahriga ko'chirilgan. 861-yilda qarluqlar Koshg'arni egallashgan. Qarluqlarning ayrim guruhlarini VIII asr o'rtalaridan Zarafshon vohasida, Farg'ona vodiysida, Shimoliy Afg'oniston, Tojikiston hududlarida ham yashagan. X asrda Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan³. O'z mustaqilligi va hokimiyati bo'lmaganligi ularning mavqeyiga ta'sir qilgan, ammo doimo muhim o'rin tutgan.

Ba'zi bir manbalarda turkiy qabilalarning kelib chiqishini qadimiy rivoyatlar bilan izohlanadi. Masalan, Abulg'oz Bahodirxon o'zining 1664-yilda yozgan "Shajarayi turk" nomli tarixiy asarida barcha turkiy qabilalar va ular tilining ildizi bir bo'lgan deb qayd etadi hamda yashash va tarqalish hududlarini ham ko'rsatadi⁴. Shoh va olim temuriy Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi"da ham shu mazmundagi etimon keltiriladi: *Qorluq. O'g'uzxon Go'r sarhadlarida Turon zamin tomon yo'lga chiqqanda qish juda sovuq kelgan edi. Dashti sahroni qor tamomam qoplab olgandi. U buyurdiki, hech kim lashkardan orqada qolib ketmasin. Ammo qor ko'pligi va sovuqdan ba'zilar lashkardan orqada qolib ketdilar. O'g'uzxonga ma'lum bo'lgach, yana farmon berdi. Ularni topib keldilar. So'roqlaganlari bilan baribir qolib ketganlar bo'ldi. Surishtirib, qolganlarga qorliq deb nom berdi. Endi qorluq najodini ular naslidan deb biladilar*⁵. Biroz bo'rttirilgani va badiiylashtirilganini hisobga olmasak, rivoyat zamirida haqiqat yotadi. "Qarluq" etimoni ma'nosining bir necha asarlarda ("Shajarayi turk", "To'rt ulus tarixi" va boshqalar) mazmunan aynan takrorlanishi ilmiy asos borligidan dalolat beradi.

Etnolog olim, akademik K.Shoniyozovning yozishicha, milodiy VI asr boshlaridan o'zbek xalqi va tilining asosiy tarkibi sanalgan qarluqlarning maqeyi ko'tarilib, qudratli Qarluq davlati shakllangan. Bu davlatda ham o'zbek elatiga xos etnogenetik ko'rsatkichlar, ya'ni hudud, davlatchilik, madaniyat, til umumiyliги kabilar hosil bo'lgan. Ularning izlari yurtimiz hududlarida etnonim va etnotoponim ko'rinishlarida saqlanib qolgan. Buxoro atroflaridagi Qarluqon, Qallukxona, Qallukon, Qarliq, Qashqadaryo va Surxondaryodagi shu kabi aholi punktlari nomlari,

² Bu haqida qarang: Taşağil Ahmet. Karluklarin coğrafi dağılimi üzerine. Türkiyat Mecmuası. C. 24 / Bahar, 2014. – S. 75-89. (avgust, 2023).

³ Шаниязов К. Узбеки-карлуки (Историко-этнографический очерк). – Ташкент, 1964.; Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 жилдли, 10-жилд. Шарқ – Қизилқум. Тахрир хайъати А.Азизхўжаев, Б.Алимов, М.Аминов ва бошқ. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2005, – Б. 606.

⁴ Баҳодирхон А. Шажараи турк (Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Б.А.Аҳмедов). – Тошкент: Чўлпон, 1990, – 192 б.; Ъjazi Alim Junus. Ozbek lahçalarini tasnifda bir taçriba. – Taşkent: Davlat naşrijeti, 1935. – B. 28.

⁵ Мирзо Улуғбек Тўрт улус тарихи (Б.Аҳмедовнинг кириш сўзи, изоҳлари ва тахририда; Форс тилидан Б.Аҳмедов ва бошқалар таржимаси). – Тошкент: Чўлпон, 1993, – Б. 51.



qarluq va uning tarkibiga kiruvchi urugʻ va toʻp nomlari bilan ataladigan toponimlar qarluqlar nafaqat Fargʻona vodiysi va Toshkent hududlarida balki, qadimdan Oʻzbekistonning barcha joylarida yashaganini dalillaydi. Bu borada akademik K.Shoniyozovning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi⁶. Har holda, bu qabila qadimdan nufuzli qabilalardan biri sanalgan.

Akademik A.Asqarov oʻzining “Oʻzbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi” kitobida yozishicha, qarluqlar ikki etnik qatlamdan iborat. Birinchi etnik qatlam VI asrdan boshlab Fargʻona vodiysi, Toshkent vohasi va Toharistonda oʻtroqlashib, genetik ildizlar omili sabab qorishib yashab ketgan. Tarixiy qarluqlar davlatining davomi sifatida yuzaga kelgan qoraxoniylar saltanatida muhim mavqega ega boʻlgan qarluqlar XI asrda xalq sifatida shakllangan oʻzbeklarning tayanch etnik qatlamiga aylangan. Ikkinchi qatlam qarluqlar yurtimizga kelib joylashishi moʻgʻullar saltanati davriga toʻgʻri keladi. Bu davrga kelib qarluqlar yurtimizning barcha hududlarida, shuningdek hozirgi Tojikiston, Qirgʻiziston, Qozogʻiston, Turkmaniston va Afgʻoniston hududlarida ham yerlashgan, oʻz urugʻ-aymogʻi boʻlmish birinchi qatlam qarluqlar bilan qorishib ketgan, oʻzbek xalqining bir boʻlagiga aylangan edi. Qarluqlar etnosiyosiy jarayonlarda ham muhim rol oʻynardi. Qoraxoniylarning tayanchi boʻlgan qarluqlar, chingiziylarning xizmatiga kirib, davlatning muhim shaxslariga aylangan. Chigʻatoy ulusi davrida madaniy va lisoniy hayotda ahamiyatli etnik va siyosiy guruh edi. Chigʻatoy tili shakllanishida qarluqlarning roli katta⁷.

Oʻzbek xalqi etnogenezining asosiy qatlamlaridan boʻlgan qarluqlar haqida birinchi eslatmani Oʻrxun-Yenisey bitiklarida va Syuan-Szyanda (7-asrning birinchi choragi) uchratamiz. Arab manbalariga koʻra, qarluqlarning oliy hukmdori Jabgʻu, Jabgu Oʻrxun yozuvlarida Yabagʻu (yabgʻu, jabgʻu) deb atalgan. Bitiktoshlarda bu qabila nomi “karluk” shaklida qoʻllanilgan boʻlib, bugungi kunimizgacha yetib kelgan barcha tosh matnlarida 26 marta ishlatilgan. Ifoda etilgan barcha oʻrinlarda qabila, urugʻ, qavm nomi va shu qabilalarga tegishli xalq, baʼzi oʻrinlarda qarluqlarga tegishli yoki buyum maʼnosida ishlatilgan. Shuningdek, “uch karluk” shaklida urugʻ maʼnosida 6 marta qayd etilgan⁸. Yabagʻu (yabgʻu, jabgʻu) qabila nomi shaklida XI asrda yashagan Gardizi asarlari orasida uchraydi. U qarluqlarning kelib chiqishi haqidagi anʼanaviy Sharq afsonasini keltiradi. Bu dushman tomonidan qirib tashlangan qabiladan omon qolgan yagona bolaning hikoyasi. Afsonaga koʻra, ikki boʻlak jabagʻu (yabagʻu) kigizi bilan qoplangan kichik qarluq (yabagʻu nomi shu

⁶ Шониёзов К. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. – Т.: “Шарқ”, 1999.

⁷ Eckmann, Janos. Çağatay dili hakkında notlar - <https://tdkbelleten.gov.tr/tam-metin-pdf/59/tur> (Avgust, 2023); Бобур. Бобурнома. – Т., 1960. – В. 166, 395. *Bu haqida qarang:* Санакулов У., Саидов И. Ўзбек давлатчилигининг шаклланишига асос бўлган илдизлар. – Тошкент: Golden Star Press, 2015. – Б. 112-134.

⁸ Şirin, Hatice. Eski Türk yazıtları söz varlığı inceleme. – Ankara. 2020, – B. 566.



yerdan kelib chiqqan) iqlimi og‘ir hududdan topilgan⁹.

Qozoq tilida “jabag‘a” shaklidagi “yabag‘u” so‘zi shu kungacha saqlanib qolgan, bahorda “qirqib olingan qo‘chqor juni”ga shunday nom berilgan. U bir tomoni qoziqli yupqa kigizga o‘xshaydi, ikkinchi tomoni silliq. “Jabag‘a”larga o‘ralgan bola sovuqdan himoyalangan. “Jabag‘a” chaqaloqning ishonchli himoyachisi sifatida xalq tomonidan hurmatga sazovor. “Jabag‘a”ga o‘ralgan bola daxlsiz bo‘lib qoladi, degan fikr bor. “Jabag‘a” eponimi jasorat timsoliga aylandi, keyinchalik bu so‘z qarluqlar, o‘g‘uzlar va boshqa xalqlarning qabila boshliqlari unvonini bildira boshladi. “Jabag‘a” tushunchasi qozoqlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, bek, sulton, tarkan kabilar bilan teng keladi¹⁰. Bu fikrlardan ham qaysidir ma’noda, mazmun izlash mumkin. “Qor” va “sovuq”, “sovuqlik” kabi so‘zlarda semantik bog‘liqlik mavjud. Ammo “sovuqdan himoya qiluvchi vosita” bo‘lgan “j(y)abag‘u” bilan “qor”ning hamda undan hosil bo‘lgan “qarluq” so‘zini, mazmunan, bog‘lash, fikrimizcha, g‘ayriilmiylikdir. Til tarixida bu so‘zlarning hozirgacha fanga ma‘lum bo‘lmagan ma‘noviy bog‘liqligi mavjuddir, ehtimol. Chunki, biron bir asos bo‘lmasa, xalq etimologiyasi ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi.

Turkiy xalqlarning tarixiy afsonaviy dostoni “O‘g‘uznoma”da qarluqlar o‘g‘uz qabilasining bir tarmog‘i bo‘lganligi aytiladi. Xitoy manbalaridan ma‘lum bo‘lishicha, qarluqlar G‘arbiy Turk hoqonligining sulolaviy oilasidan chiqqan. Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, turkman etnik guruhini qarluqlar va o‘g‘uzlar tashkil qilgan. Afsonaga ko‘ra, qarluqlarning ajdodi Elik (Elig) edi. VII asr o‘rtalarida. Qarluqlar Oltoy tog‘larining janubi-g‘arbida katta maydonni egallagan: hozirgi Qozog‘iston, Qirg‘iziston hududlaridagi Chuv va Talas vodiysi, Olatov va Tangritog‘ etaklarigacha. Keyinchalik Almati shahri yaqinidagi Qo‘yliq hududida joylashib, u yerni o‘zlariga markaz qilib tanladi. Bu shahar qarluqlar davlati hukm surgan vaqtda poytaxt vazifasini o‘tadi¹¹.

“Hudud al-olam” ma‘lumotlariga ko‘ra, sharqda qarluqlarning mulklari Tibetga va to‘g‘uz-o‘g‘uzlar hududiga yetib borgan, janubda ular Movarounnahr, g‘arbda g‘uz [o‘g‘uzlar] hududi bilan chegaradosh bo‘lgan. Shimolda qarluqlarning mulklari Tarbag‘atoy, Chingiz va Qarqarali tog‘larigacha cho‘zilgan. Bu hududlarda qarluqlarning tosh haykallari bor. Qarluqlar chorvachilik, dehqonchilik, bog‘dorchilik, beda yetishtirish bilan shug‘ullangan. Ilk o‘rta asrlarda daryo vodiylarida. Chuy, Talas, Aris sug‘orish kanallari zich tarmog‘iga ega bo‘lgan

⁹ Gerdizi, Ebû Said. Tarih-i Gerdizi. Tahrân: Dûnya-yı Kitap, 1363 (h.) - <http://kaynakca.hacettepe.edu.tr/eser/60455412/tarih-i-gerdizi> (Avgust, 2023)

¹⁰ <https://www.kazportal.kz/istoriya-karlukov-karluki> (avgust, 2023).

¹¹ Ömer, Şerafettin. Oğuznameye dair bazı meseleler (Akt. Alimcan İnayet) -<https://tdkturkdunyasi.gov.tr/tam-metin-pdf/87/tur> (Sentabr, 2023)



sug'orma dehqonchilik rivojlangan. Aholi punktlarida hunarmandlar kulolchilik va metall ishlab chiqarish bilan shug'ullangan¹², buni arxeologlar tomonidan topilgan ko'plab kulolchilik va metall buyumlar tasdiqlaydi. "Qo'zi Ko'rpesh va Bayon Sulu" dostoni qipchoqlar va qarluqlarning birgalikdagi ijodi natijasi bo'lib, uning bosh qahramonlari sariboy-qipchoq va qoraboy-qarluqlardir. Ayag'uz daryosidagi baraban, dovul va qo'ng'iroqlar bilan jihozlangan aloqa (chaqiruv, Kamennaya bashnya «дынг») tosh minorasi, xalq rivoyatlariga ko'ra, sevishganlar: qipchoq qabilasi vakili Qo'zi Korpesh hamda qarluqlar xoni Qoraboy Bayan Suluning qizi yotgan qabr qoldiqlari qarluqlar tomonidan qurilgan. Minora ichidagi qarluq an'alarida yasalgan tosh haykallar bu obidalarni qarluqlar tomonidan qurilganini dalillaydi¹³.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Qoraxoniylar davlatining asosida qarluqlar turgan, XII asrda bu davlat tanazzulga uchraganidan keyin Yettisuv qarluqlari, qanglilar va chigillar siyosiy ittifoq tuzdilar, ularning sa'y-harakatlari qoraxitoylarga qarshi kurashni tashkil etishga qaratilgan edi. Keyinchalik ularga Sirdaryo qipchoqlari va Xorazm qo'shildi. Bu vaqtda qanglilar Ilida markazi Olmaliq bo'lgan davlatga asos solgan. Parchalangan Qoraxoniylar davlatining barcha yirik arboblari Balasag'undan Olmaliqga ko'chib o'tdilar. Daryoning yuqori oqimi yoki Olmaliqga tutash yerlarda, asosan, qanglilar va bekrenlar (mekrenlar) yashagan. Qanglilar (qoraqanglilar, qizilqanglilar, mekrenlar) Olmaliq, Balasog'un va Tarazning asosiy aholisi bo'lgan. Olmaliq va Taraz oralig'idagi hududni ham qanglilar bosib olgan. Mo'g'ullar bosqinidan oldin Yettisuv hududida Olmaliq qanglilar sulolasi va qarluqlar sulolasi mavjud bo'lib, ular markazi Qo'yliqda joylashgan, xarobalari hozirgi Toldiqo'rg'on (Qozog'iston) shahri yaqinida joylashgan. Qang'illar va qarluqlar bir-biri bilan do'stona munosabatda bo'lgan, bu qabilalarning ittifoqi sharqdan bosqinchilikni, g'arbdan esa Xorazmshohning da'volarini qaytarishga muvaffaq bo'lgan. Olmaliqlar davlatining boshlig'i Tug'rulxon, qarluqlar davlatining boshlig'i Arslonxon edi. Mo'g'ullar ularni vassal qilib olgan, mo'g'ullar ular bilan diplomatik munosabatda bo'lgan va hatto qarindosh bo'lib ketgan¹⁴.

Qarluqlarga qardosh xalach va chigil qabilalari XIV-XV asrlarda Zarafshon vohasida, Toharistonda yashar edilar. Ular Movarounnahrning siyosiy hayotida muhim rol o'ynaganlar. Dashti Qipchoqda qolib ketgan qarluqlar guruhi Shayboniy qo'shinlari bilan birga XVI asr boshlarida Movarounnahrda kirib keladilar va shakllangan o'zbek xalqi davlati tarkibiga qo'shiladilar¹⁵. Xullas, qarluqlar juda

¹² Gardizi, Abū Said. *Hudud Al Alam. The Regions Of The World. A Persian Geography. 372 AH -972 AD* by V. Minorsky. – Oxford: The University Press, 1937. – 544 P. -<https://archive.org/details/in.ernet.dli.2015.281514> (Avgust, 2023)

¹³ <https://www.kazportal.kz/istoriya-karlukov-karluki> (avgust, 2023).

¹⁴ <https://www.kazportal.kz/istoriya-karlukov-karluki> (avgust, 2023).

¹⁵ Асқаров А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихи. – Т., 2007, – Б. 250-261.



qadimgi va nufuzli turkiy qabilalardan bo'lgan. Ular miloddan oldingi VII asrdan to milodiy XII asrgacha turkiy qabilalar birlashmalarida yetakchi o'ringa ega bo'lganlar ularning qudratli davlatlari ham bo'lgan. Hozirgi olimlarning fikricha, qarluqlar o'zbek xalqi tarkibining asosiy komponentlaridan biri sanaladi.

Qarluqlar tashkiloti o'ziga xos tuzilma bo'lib, u bir necha urug' va ijtimoiy guruhlarning iyerarxik tizimini o'z ichiga olgan. Qabila jamiyatining rahbarlari muhim qarorlar qabul qiladigan va qabila a'zolari ustidan hokimiyatga ega bo'lgan boshliqlar edi. Olimlar tomonidan amalga oshirilgan o'zbek shevalari tasniflarining bir qanchasida ham qarluq-chigil-uyg'ur shaklida birgalikda nomlagan. Ya'ni bir necha urug' va qavmlardan tashkil topgan yirik qabilalar ittifoqi sifatida ulkan va ahamiyatli tarixiy yo'lni bosib o'tgan hamda, asosan, o'zbek va boshqa turkiy xalqlar, qisman, tojik xalqining tarkibiga singib, shu xalqlarning shakllanishida asosiy tarixiy etnos vazifasini bajargan. Yirik va qudratli qabila bo'lmasa-da, doimo mustaqil davlat tuzishga harakat qilgan qarluqlar, Ikkinchi Turk Hoqonligi tanazzulidan so'ng o'z davlatini barpo etadi. Shuningdek, qudratli Qoraxoniylar davlatida ham yetakchi mavqega ega bo'ladi. Qadimdan davlatchilik va yozuv madaniyatiga ega uyg'urlar, chigil va yag'mo qabilalari bilan birgalikda Qoraxoniylar qudratining kuchayishiga, madaniyat, san'at, din va ta'limning rivojlanishiga munosib hissa qo'shadilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, qarluq xalqlarining tarixiy etnogenezi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutadi. Ushbu tadqiqotda qarluqlarning kelib chiqishi, shakllanish jarayoni, etnik tarkibi, migratsiya yo'llari, siyosiy va madaniy rivojlanishi kabi masalalar turli tarixiy manbalar asosida o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Qarluqlar turkiylar tarixiy etnogenezida muhim o'rin tutgan davlat birlashmasidir. Qarluqlarning shakllanishida turli qabila va urug'lar ishtirok etgan. Qarluqlar VII-XIII asrlarda Markaziy Osiyo hududidagi siyosiy hayotda muhim rol o'ynagan. Qarluqlar madaniyati mintaqa xalqlarining madaniyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Shunga qaramay, qarluqlar etnogenezining ayrim jihatlari hanuzgacha bahsli bo'lib qolmoqda va chuqur tadqiqotni talab etadi. Kelgusida tilshunoslik, arxeologiya, etnografiya va tarix fanlari o'rtasidagi hamkorlik qarluqlar tarixi va madaniyatiga oid yangi ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Shoaburahmonov "O'zbek tili qarluq shevalari" 1983
2. Salman, Hüseyin. VII. ve X. Asırlar Arasında Önemli Türk Boylarından Karluklar ve Karluk Devleti, Türk Dünyası Araştırmaları, 15, Aralık, 1981, – s. 170-172.
3. Шаниязов К. Узбеки-карлуки (Историко-этнографический очерк). – Ташкент, 1964.; Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 жилдди, 10-жилд. Шарқ – Қизилқум. Таҳрир

